

**KASBIY DEFORMATSIYANING IJTIMOIIY MUHIT VA
SHAXSGA TA'SIRI**

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi, kapitan

Ikramov Kamronbek Dilshodbek o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy deformatsiya tushunchasi, uning sabablari, belgilari va oqibatlari haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, kasbiy deformatsiyani oldini olish choralariga ham to'xtalib o'tiladi.

Kalit So'zlar: Kasbiy deformatsiya, stress, professional rivojlanish, psixologik barqarorlik, oldini olish choralari

KIRISH

Mazkur termin birinchi marta XX asr boshlarida amerikalik sotsiolog Pitirim Sorokin tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u kasbiy deformatsiyani kasbiy faoliyatning odamga salbiy ta'sir ko'rsatishi sifatida baholagan. Uning qarashlarida kasbiy deformatsiya kasbiy faoliyatni bajarish jarayonida salbiy ta'sirlar natijasida kelib chiqadigan psixologik oqibat sifatida ko'rishimiz mumkin.

Insonning kasbi uning shaxsiyatiga ta'sir qilishi haqidagi qarashlar XIX asrdayoq falsafa va sotsiologiyada paydo bo'lgan. Mazkur qarashlar nemis faylasuf, sotsiologi Karl Marks va fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeymning asarlarida uchraydi.

Karl Marks 1844-yilda chop etilgan "Iqtisodiy-falsafiy qo'lyozmalar" asarida mehnatning insonga ta'siri haqida fikr bildirib, "mehnatning begonashishi" tushunchasini kiritadi. U inson o'z mehnat mahsuli ustidan nazoratni yo'qotishi va mehnati uning shaxsiy rivojlanishiga emas, balki boshqa birovlariga foyda keltirishi haqida yozadi. Bu begonashish inson ruhiyati va xatti-harakatlariga ta'sir qilishi haqida akir bildiradi.

Emil Dyurkgeym 1897-yilda chop etilgan "O samoubiystve" asarida kasbiy va ijtimoiy majburiyatlarning insonning psixologiyasiga qanday ta'sir qilishini, har xil ijtimoiy muammolar, shu jumladan kasbiy stress va charchash (byornaut), shunga

o'xshash holatlarga olib kelishi mumkinligi to'g'risida mulohaza yuritgan.

Haqiqatdan ham inson kasbiy deformatsiyaga ucharagan holda mehnat faoliyatini davom ettiraversa mehnat unumdorligi pasayadi.

Bugungi kunda mutaxassislarning fikriga ko'ra deformatsiyaga oid kasalliklarning sonining ortishi kuzatilmoqda. Ko'plab insonlar boshidan kechirayotgan doimiy stressga oilaviy, kasbiy, iqtisodiy muammolar bog'liqligini taxmin qilish mumkin. Afsuski, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bu stress omillari mikroijtimoiy stressorlar asosida rivojlanib kelmoqda.

Ta'kidlash kerakki, har bir kasbda kasbiy deformatsiyaning turli shakllari mavjud bo'lib, bu kasbning talablari, shunga asosan shaxsning psixologiyasi va ishga bo'lgan munosabatini o'zgartirishi mumkin. Kasbiy deformatsiya odamlarning ijtimoiy munosabatlariga, shaxsiy hayotiga va professional harakatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu tushuncha XX asrning o'rtalaridan boshlab pedagoglar, psixologlar, huquqshunolar, sotsiologlar tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, XX asrning 60-yillarida AQSHning nufuzli Michigan va Kaliforniya universitetlari olimlari tomonidan insonning funksional imkoniyatlari muammosi sifatida ta'riflash boshlandi. Harbiy xizmatchilarda kasbiy deformatsiya o'zining mohiyatiga ko'ra bir nechta qismlardan iborat bo'ladi. Kasbiy deformatsiyani yuzaga kelishiga nafaqat shaxslararo munosabatlar shuningdek kasbiy faoliyatdagi barcha salbiy omillar o'zining ta'sirini ko'rsatib boradi. Kasbiy deformatsiya harbiy xizmatchilardagi ruhiy deformatsiyaning ko'rinishlaridan biri bo'lib, ruhiy deformatsiya esa harbiy xizmatchilarning ruhiy holatidagi deformatsiyani yuzaga keltiradi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy deformatsiyasi esa o'z navbatida harbiy xizmatchilardagi salbiy kompleks o'zgarishlar yig'indisidan iborat bo'ladi.

Turli xildagi omillar ta'siri ostida insonning shaxsiy fazilatlari va xususiyatlari ya'ni idrok etish stereotiplari, qadriyatlar yo'nalishlari, xarakter xususiyatlari, muloqoti va xatti-harakatining salbiy jihatdan o'zgarishi shaxs deformatsiyasi deyiladi. Kasbiy deformatsiya — bu shaxsning ma'lum kasb faoliyatiga bog'liq holda psixologik, hissiy va xulq-atvor o'zgarishlariga uchrashi

jarayoni. Kasbiy deformatsiya ko'pincha kasbning o'ziga xos talablari va sharoitlari tufayli kelib chiqadi va vaqt o'tishi bilan professional faoliyat, muloqot tarzlari va kundalik hayotga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur tezisda kasbiy deformatsiya tushunchasi va uning ijtimoiy-psixologik oqibatlari haqida batafsil to'xtalib o'tiladi.

Kasbiy deformatsiyaning sabablari

Kasbiy deformatsiyaga olib keluvchi omillar quyidagilardir:

1. Faoliyatning rutiniyligi: bir xil vazifalarni doimiy ravishda bajarish shaxsda charchoq va hissiy o'zgarishlarga olib keladi.
2. Yuqori stress va mas'uliyat: masalan, tibbiyot, huquqni muhofaza qilish va ta'lim sohalarida.
3. Ijtimoiy me'yorlar va kasbiy bosimlar: ishda muvaffaqiyatga erishish uchun talablar va me'yorlar kutilgan holatlar tufayli deformatsiyaga sabab bo'lishi mumkin.

Kasbiy deformatsiyaning belgilari va oqibatlari

Kasbiy deformatsiyaning asosiy belgilari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Emotsional charchoq
- Motivatsiyaning pasayishi
- Muloqot va xulq-atvor o'zgarishlari

Oqibatlari esa quyidagilar:

- Kasbiy faoliyatda pasayish
- Shaxsiy hayotdagi qiyinchiliklar
- Jamoalar bilan ishlash qobiliyatining zaiflashishi

Kasbiy deformatsiyani oldini olish choralari kasbiy deformatsiyani oldini olish uchun quyidagi choralarga e'tibor qaratish lozim:

1. O'z-o'zini rivojlantirish va malaka oshirish
2. Stressni boshqarish usullaridan foydalanish
3. Kasbiy o'qitish va tayyorgarlik kurslarini o'tkazish
4. Dam olish va ish hayotini muvozanatlash

Kasbiy deformatsiya – bu shaxsning kasbiy faoliyat jarayonida shakllangan ruhiy va psixologik o'zgarishlar yig'indisidir. Bu holat xodimning kasbida

o'rganilgan xulqatvor, yondashuv va odatlarning o'ziga singib ketishi, natijada esa shaxsning o'zini va atrof-muhitni idrok etishida o'zgarishlar sodir bo'lishidir. Bugungi kunda kasbiy deformatsiya muammosi, ayniqsa, stress va yuqori mas'uliyat talab etuvchi sohalarda (huquq-tartibot organlari, tibbiyot, pedagogika va boshqalar) ko'p kuzatiladi. Bu esa shaxs va uning ijtimoiy muhitiga ta'sir ko'rsatadi.

Kasbiy deformatsiyaning shaxsiyatga ta'siri

Kasbiy deformatsiya shaxsiyatda bir qator salbiy o'zgarishlar keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, odam ish jarayonida doimiy stress va psixologik bosim ostida bo'lganida, uning xulqida qattiqqo'llik va befarqlik yuzaga keladi. Huquq-tartibot organlari xodimlarida bu o'zgarishlar tajovuzkorlik va qat'iyat bilan bog'liq bo'lsa, tibbiyot sohasidagi xodimlarda ko'pincha hissiy befarqlik va «ruhiy charchoq» ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, kasbiy deformatsiya insonda birovlar bilan aloqa qilishda cheklanish, yaqinlar bilan muloqotda ziddiyatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Ijtimoiy muhitga ta'siri

Kasbiy deformatsiya nafaqat shaxsning o'ziga, balki uning atrofidagi ijtimoiy muhitga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kasbiy deformatsiyaga uchragan odam ijtimoiy muhitda o'zini yakkalashga, yaqinlaridan uzoqlashishga moyil bo'ladi. Masalan, doimiy xavf-xatar bilan bog'liq sohalarda ishlaydigan xodimlar (masalan, politsiyachilar yoki favqulodda vaziyatlar xodimlari) ishdagi hissiyotlarini uyga olib kelishi, bu esa oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Natijada, shaxsning oilaviy hayotidagi muvozanat buzilib, ish va oilaviy mas'uliyat o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqadi.

Psixologik va ijtimoiy oqibatlar

Kasbiy deformatsiya ko'pincha ruhiy salomatlik muammolariga olib keladi. Doimiy stress va tashvish insonning sog'lig'iga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday vaziyatlarda shaxsning o'zini yo'qotib qo'yish, turli ruhiy kasalliklar, masalan, depressiya va tashvishli buzuvchilik kabi muammolar yuzaga keladi. Ushbu omillar esa uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeiga ta'sir ko'rsatishi, do'stlar va tanishlar bilan munosabatlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Kasbiy deformatsiyani kamaytirish va oldini olish choralari

Kasbiy deformatsiyaga uchragan xodimlarga yordam berish va bunday holatlarning oldini olish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagi choratadbirlar samarali hisoblanadi:

1. Psixologik yordam va maslahatlar kasbiy deformatsiyaga duch kelgan xodimlar uchun psixologik yordam va maslahatlar, terapevtik sessiyalar orqali ularga ichki stressni bartaraf etishga yordam berish mumkin.

2. Ish muhitini yaxshilash doimiy stress va og'ir sharoitlarda ishlaydigan xodimlar uchun qulay ish muhitini yaratish, ular uchun dam olish va hordiq chiqarish imkoniyatlarini ta'minlash ham deformatsiya darajasini kamaytirishi mumkin.

3. Kasbiy rivojlanish va qayta tayyorlash xodimlarni doimiy ravishda kasbiy rivojlantirish va yangi bilimlar bilan tanishtirish deformatsiyadan qochishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, monoton ish faoliyati olib boradigan xodimlar uchun muhimdir.

4. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xodimlarning oila a'zolari va do'stlari tomonidan berilgan ijtimoiy qo'llabquvvatlash deformatsiya bilan kurashishdagi eng kuchli vositalardan biridir.

XULOSA

Kasbiy deformatsiya shaxsiyat va ijtimoiy munosabatlarga jiddiy ta'sir qiluvchi muhim psixologik holatdir. Bu o'zgarishlar, ayniqsa, yuqori darajadagi stress va xavfli sharoitlarda ishlaydigan xodimlar uchun kuchli ta'sir ko'rsatadi. Kasbiy deformatsiya natijasida insonda qattiqqo'llik, hissiy befarqlik va ziddiyatlar yuzaga keladi. Ushbu maqolada kasbiy deformatsiyaning shaxsiyat va ijtimoiy muhitga ta'siri, uni oldini olish choralari yoritilgan. Shu sababli, har bir kasb egalari o'z salomatligi va ijtimoiy munosabatlari uchun deformatsiyadan saqlanishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llashi muhim. Kasbiy deformatsiya shaxsning kasb bilan bog'liq o'zgarishlari bo'lib, unga ijtimoiy, psixologik va hissiy omillar ta'sir qiladi.

Ushbu maqolada kasbiy deformatsiyaning sabablari va oldini olish choralari haqida fikr yuritildi. Kasbiy deformatsiyani kamaytirish va professional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun o'zo'zini boshqarish va psixologik yordam

mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahimov, N. (2021). Kasbiy deformatsiyaning psixologik asoslari. T.: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Abdullayev, I. (2019). Kasbiy stress va deformatsiya (2-nashr). B.: Buxoro universiteti.
3. Aminova, S. va Axmedov, O. (2020). Kasb psixologiyasi. T.: Sharq nashriyoti.
4. Jones, R., & Bright, J. (2017). Stress and Occupational Health: Psychosocial Impact. London: Routledge.
5. Xo'jayev, B. (2018). Ijtimoiy psixologiya va kasbiy deformatsiya. T.: Toshkent davlat pedagogika universiteti.
6. Xon, M. (2020). Professional Development and Occupational Deformation. Journal of Psychology, 12(3), 115-127.
7. Smith, J. (2019). Occupational Stress and its Effects. London: Academic Press.
8. Anderson, L. & Brown, T. (2021). Workplace Challenges and Personal Growth. New York: Routledge.